

LINGVOPOETIK VOSITA O'XSHATISH HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

MUXAMATOVA Dilbar Xayot qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tillar fakulteti talabasi

muxamatovadilbar@gmail.com



<https://doi.org/10.24412/2181-2993-2023-2-228-231>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy adabiyotimizda ko'p uchrovchi, lingvopoetikaning sintaktik xususiyatlaridan biri bo'lgan o'xshatish haqida fikr -mulohazalar yurilgan

***Kalit so'zlari:** lingvopoetika, o'xshatish, etalon, o'xshatish asosi, o'xshatish subyekti, shakliy ko'rsatkich, an'anaviy o'xshatishlar, xususiy-muallif o'xshatishlari, leksik vositalar, grammatik vositalar, tashbeh.*

ABSTRACT

This article discusses simile, which is one of the syntactic features of linguopoetics, which is very common in our fiction.

***Key words:** linguopoetics, simile, standard, basis of simile, subject of simile, formal indicator, traditional similes, similes of the author, lexical devices, grammatical devices, simile.*

KIRISH

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi har bir adabiy davrning muhim ilmiy-nazariy masalalari, muammolari bilan boshqa tilshunoslik sohalaridan ajralib turadi va bu masalalar uning xarakterli tomonidir. Xususan, badiiy ijod namunalarimiz, mukammal adabiy merosimiz lingvopoetik xususiyatlarini to'laqonli tahlil qilish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus go'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi.¹

O'xshatish usuli narsa, voqea-hodisa, tushunchani ikkinchi bir shu xildagi umumiylikka ega bo'lgan narsa, voqea-hodisaga qiyoslash, o'xshatma qilish yordamida ish ko'radi. U mumtoz adabiyotimizda tashbeh deb yuritiladi.

¹ Abdullayeva A. O'zbek tili ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983. 88b

Barqaror taqqoslashlarni nazariy tushunish rus tilshunosligida XX asrning 60-yillarida boshlangan. Eng keng tarqalgan stilistik vositalardan biri bo'lgan taqqoslash ko'plab olimlarning diqqat markaziga aylandi: V.V. Vinogradova, I.M. Sechenov, A.A. Potebni, N.P. Pototskaya, Z.I. Xovanskaya, M.P. Brandeis. Y. Stepanova. A.I. Efimova, K.A. Dolinina va boshqalar.

O'z asarlarida V.V. Vinogradov shunday deb yozgan edi: "Taqqoslash frazeologik tuzilmalarning alohida turi bo'lib, unda iboraning ichki shartliligi obrazning an'anaviy milliy xususiyati, isbotlangan aniqligi bilan belgilanadi".

I.M. Sechenov: "Insonning his-tuyg'ulari bilan idrok etadigan va uning aqliy faoliyati natijasi bo'lgan hamma narsa (dunyoning yaxlit tasvirlaridan tortib individual belgilar va xususiyatlargacha, voqelikdan ajratilgan konkret taassurotlargacha) ongimizni assotsiativ tarzda bog'lanishi o'xshatish hisoblanadi".

O'xshatishlar eng qadimiy tasvir vositalari biri hisoblanadi. Hattoki o'xshatishlar xalq og'zaki ijodida ham qo'llangan. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlarini o'xshatish, metafora, sifatlash kabi ko'hna usullar-ning tahlili misolida juda mukammal o'rgangan M.Yokubbekova bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: "Xalq, qo'shiqlari poetikasini tashkil etuvchi qo'shiq syujeti, kompozitsiyasi, obrazlari kabi uzvlar orasida qo'shiqlarning lisoniy badiiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shiqning voqeiy mohiyatining so'z orqali qay tarzda, qaysi qonuniyatlar asosida ifoda etilayotgani - lisoniy badiiyati lingvistik xususiyatlari majmuidan anglashiladi".²

Farg'onaning qizlari-ey, omon yor,
Shahlo ekan ko'zlari-ey, omon yor.
Nozlanib o'ynaganda-ey, omon yor,
Ohu kabi o'zlari-ey, omon yor.

O'xshatishni hosil qilishda ma'lum unsurlardan foydalaniladi. Ammo shu unsurlarning qo'llanishibo'yicha turli olimlarlar turlicha fikrlari mavjud. Masalan, Ma'rufjon Yo'ldoshev o'zining "Badiiy matnning lisoniy tahlili" kitobida quyidagicha yozadi: "Adabiyotlarda har ganday o'shatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari". Bundan ko'rinib turibdiki, Ma'rufjon Yo'ldoshev bu unsurlarni to'rt guruhga ajratgan³. J.Lapasov esa o'zining "Badiiy matn va lisoniy tahlil" qo'llanmasida esa o'xshatish uchun uch

² Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 2005. 27-bet

³ Ma'ruf Yo'ldoshev. "Badiiy matn lingvopoetikasi"

unsur ishtirok etishini aytib, ular 1) o'xshatilgan shaxs yoki unsur; 2) o'xshatish asosi; 3) o'xshatish vositasi ⁴deb ta'kidlaydi.

Men Ma'rufjon Yo'ldoshevning fikrlariga qo'shilgan holda quyidagi misolar orqali fikrimni isbotlamoqchiman: Qadding tiklikda sarv kabi. Ushbu gapda fikr qad haqida ketmoqda. Shuning uchun bu gapimizda qad — o'xshatish subyektini (o'xshamish). O'xshatish subyektini sarvga o'xshatilganligini inobatga olsak, o'xshatish etaloni (o'xshatilmish) — sarv. O'xshatish va o'xshatilmish "tik"lik asosida birlashyapti. Demak, o'xshatishimizning asosi — tiklik, va bu uch unurni bir-biriga bog'lovchi vosita "kabi" ko'makchisidir.

Quyidagi misollar orqali to'rt unsur ham ishtirok etgan tashbehlarni ko'ramiz:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,

Asrlik **tosh yanglig'** bu **xatarli yo'lda** qotdim-ku. (Cho'lpon)

Bu misrada o'xshatish subyektini — yo'l, etalon — tosh, asos — xatarli, o'xshatishni yuzaga chiqargan vosita esa yanglig' ko'makchisidir.

Yorilmagan yaraday sevgi! (Abdulla Oripov)

Abdulla Oripovning qalamiga mansub ushbu misrada o'xshamish — sevgi, o'xshatilmish — yara, asosi — yorilmaganlik, vosita esa -day o'xshatish qo'shimchasidir.

Har qachonki, kemaga ul oy safar raxtin solur,

Mavjlig' daryo kibi oshufta **ko'nglum** qo'zg'olur. (Alisher Navoiy)

Navoiy qalamiga mansub ushbu matla'ning ikki misrasig e'tibor beramiz. O'xshatishlarni aniqroq topishimiz uchun hozirgi adabiy o'zbek tiliga o'girib olamiz: Mavjlik daryo kabi oshufta ko'nglim qo'zg'aladi. Yuqoridagi misollarda ko'rib o'tganimizdek, fikr qaratilgan narsa — o'xshatish subyektini, ya'ni o'xshamish. Bu misrada o'xshamish — ko'ngil. Ko'ngil daryoga nisbat berilganligi uchun o'xshatilmish — daryo. Daryo va ko'ngil mavjlanish, doim oshiqib turish asosida bog'lanadi. Demak, o'xshatish asosi — mavjlik. Bilib turganimizday, vosita kabi ko'makchisidir.

Endigi misollar orqali uch unsur ishtirok etgan gaplarni ko'rishimiz mumkin, bunda misollarda asosan o'xshatish asosi ishtirok etmaydi:

Shishadek ko'nglumdadur gulzori husnung yodidin,
Tobdonning aksidek alvon qizil, sorig', yashil. (Alisher Navoiy)

O'xshamish (ko'nglum) va o'xshatilmish (shisha) kabi vositasi orqali bog'lanadi. Ko'rib turganimizdek, o'xshatish asosi yo'q.

So'zlari sadafdek, tovushi naydek

Kuyini har yerda elga sayraydir. (Cho'lpon)

⁴ J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. 27-bet

Bu misrada ikkit o'xshatish qatnashgan. O'xshamishlar— so'z,tovush ; o'xshatilmish — sadaf,nay va bu ikki unurni bog'lovchi vosita -dek affiksidir.

XULOSA

Ushbu keltirilgan misollardan tashbeh san'ati she'riy asarlar tarkibida ko'p qo'llanilishini bilishimiz mumkin.Umuma olganda,ham nasriy , ham she'riy asarlar o'xshatish qo'llanishi mumkin. Hatto jonli so'zlashuv uslubida ham bu vositadan unumli foydalanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abdullayeva A.O'zbek tili eksperrivlikning ifodalanishi.- Toshkent:Fan , 1983.88b
2. Yoqubbekova M.O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari.- Toshkent:Fan,2005.27-bet
3. Ma'ruf Yo'ldoshev ."Badiiy matn lingvopoetikasi"
4. J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil.-Toshkent:O'qituv